



MIR SAYYID SHARIF JURJONIYNING HAYOTI VA ILMIY FAOLİYATI

Nurmanov Yaxshilik

Toshkent islom instituti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Aqoid ilmiga kata hissa qo'shgan Alloma Mir Sayyid Sharif Jurjoniyni hayoti va yozgan asarlari haqida malumot berdim.

Kalit so'zlar: Mir Sayyid Sharif Jurjoni, Sharh al-mavoqif, shayx Hoja Alouddin Attor, Misr, Aqliy- Naqliy bilimlar, Istanbul.

Tug'ilishlari va hayotlari. "Bahslarda va ilmlarda Taftazoniy hazratlaridan ustun bo'lishi mumkin, biroq Jurjoni hazratlari sayyidligi uchun ham bugun g'olibdir". Amir Temur Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning shajarasiga 13 avlod vositasida tutashgan Muhammad ibn Zaydning nasabidan bo'lgani, Abulhasan Ali ibn Muhammad Mir Sayyid Sharif Jurjoni 24-Fevral kuni 1340 yilda Astrobod (Jurjon) yaqinidagi Togu (Toju) qishlog'ida tavallud topgan.

Ilm olishlari. Yoshligidan bilimga chanqoq Jurjoni hazratlari ilk ta'limini qishlogida olgan, keyinchalik Qutbuddin ar-Roziy hazratlaridan Hirotda dars oladi, keyinchalik ustози Qutbuddin ar-Roziy hazratlarining tavsiyalariga ko'ra darslarini davom ettirish uchun Misrga Hazrat Muborakshoh al-Mantikiy yoniga yo'l oladi. Misrga yo'l olar ekan Hazrat Jamollidin Oqsaroyiydan dars olishni niyat qiladi va Anadoluga (Turkiya)



Oqsaroyga keladi, Shayhni vafotini eshitgach uyerda tanishgan Molla Fanoriy hazratlari bilan birga Misrga yo'l oladi.

Misrda 10 yil davomida Shayh Badriddin, Shoir Ahmadiy, Hoji Ivaz Pasha kabi zamoninig yetuk olim-u mutafakkirlari bilan birgalikda, Hazrat Muborakshoh al-Mantikiydan Aqliy, Hazrat Akmaliddin Babertidan Naqliy bilimlarni oladilar.

Misrdan Sherozga qaytib u yerda Shoh Shuja tarafidan Darush shifa Madrasasiga Mudaris qilib tayinladi va bu joyda 10 yil mudarislik qildi. 789/1387 yilda Amir Temur Sherozni ishg'ol etadi va an'anaga ko'ra, u yerdagi din kishilarining hurmatini o'z o'rniga qo'yadi. Amir Temur Jurjoniyni yuksak ilmga egaligi hamda Payg'ambar avlodidan ekanidan xabar topgach, unga alohida hurmat ko'rsatadi. Hatto uning uyidan panoh topganlarga ham omonlik berdi. Amir Temur Jurjoniylar bilan ko'rishgach uni Samarqandga taklif etdi. Jurjoniylar taklifni qabul qilib, Samarqandga yo'l oldi. Jurjoniylar hazratlari Samarqandda o'n sakkiz yil bosh mudarris sifatida faoliyat olib bordi va o'z qalamiga mansub asarlarining aksarini yurtimizda kechgan faoliyati davomida ta'lif etdi.

Samarqandda yashash davomida Sayyid Sharif Jurjoniylar bir qator olimlar, xususan, alloma Taftazoniylar (vaf. 794-1392 y.) bilan bir qancha ilmiy bahs va munozaralar olib bordi. Ushbu munozaralarning aks-sadosi butun olamga tarqaldi. Hatto mazkur ilmiy munozaralarga doir alohida risolalar ham bitildi. Munozaralarda ustun kelgan Jurjoniyni shuhrati olimlar orasida tanilishi bilan birga Amir Temur nazdida ham uning e'tibori yanada yuksaldi. Natijada Amir Temur uni Movarounnahrdagi birinchi raqamli olim mavqeiga chiqardi.

Samarqandda Naqishbandiya tariyqati shayxi Hoja Alouddin Attorga qo'l berib Mavlona Nizommidin Hamish bilan do'st tutinib uning tasovvuf suhbatlarida bo'ldi.



(807/1405) yilda Amir Temur vafot etganidan so'ng mamlakatda yuzaga kelgan fitna va parokandalik sabab Sayyid Sharif Jurjoyiy Sherozga qaytdi.

Sayyid Sharif Jurjoniyl o'zidan so'ng ulkan ilmiy meros qoldirgan kam sonli olimlardan sanaladi. U diniy va dunyoviy ilmlarga oid bir qancha asarlar ta'lif etdi. Mazkur ilmlar avvalida kalom ilmi, arab tili, falsafa, mantiq, astronomiya, matematika, tarix, fiqh, hadis, tafsir, tasavvuf kabilarni sanab o'tish mumkin. Manbalarning qayd etishicha, Jurjoniyl o'ta zakiiy, har bir masalaning daqiq joylarigacha o'rganuvchi, fasohat va balog'at sohibi, munozara yuritishda mohir, muhaqqiq ulamolardan hisoblangan. Uning arab tili, meros va kalom ilmiga oid asarlari bir necha avlod almashsa ham ta'lim maskanlarida asosiy manba sifatida o'qitilmoqda.

Ilmiy meroslari. Jurjoniyl diniy va dunyoviy ilmlarga bag'ishlangan ellikdan ortiq asar yozgan. Asarlarining aksar qismini sharh va hoshiyalar tashkil etadi. Ulardan ba'zilari:

Xususan, Kalom ilmiga oid: *“Sharh al-mavoqif”, “Sharh al-aqoid al-azudiyya”, “Sharh al-asma al-husna”, “Risola fi-l-firqa an-najiya fi-l-mazahib”, “Hoshiya at-tajrid”.*

Falsafa, Mantiq va Astronomiyaga oid: *“Hoshiya a'la sharh hikmati-l-a'yn”, “Hoshiya a'la sharh hidoyati-l-hikma”, “Hoshiya a'la lavami' al-asror sharh matole' al-anvor”, “Risola fi-l-mantiq”.*

Arab tiliga oid: *“At-Ta'rifot”, “Sharh al-Izziy”, “Hoshiya a'la sharhi-l-Kofiya”, “Hoshiya a'la-l-Mutovval”.*

Fiqhga oid: *“Hoshiya a'la sharh muxtasari-l-muntaho”, “Hoshiya a'la-t-talvih”, “Sharh al-faroiz as-sirojiyya”, “Hoshiya a'la-l-Mutovval”.*

Tasavvufga oid: *“Ar-Risola ash-shavqiyya”, “Ar-Risola al-bahoiyya”, “Ta'liq a'la a'varif al-maorif”.*

Tafsir ilmiga oid: *“Hoshiya a'la-l-Kashshof”, “Hoshiya a'la tafsir al-Bayzoviy”, “Tafsir az-zahrovayn”, “Tarjumon al-Qur'on”.*



Hadis ilmiga oid: *“Ad-Diboj al-mazhab”, “Hoshiya a’la xulosa at-Tibiy”.*

va boshqa asarlarni sanab o‘tish mumkin.

Vafotlari. Abulhasan Ali ibn Muhammad Mir Sayyid Sharif Jurjoniyl hijriy “816-yil 6-robiul ahir (mil. 1413-yil 6-iyul.)” chorshanba kuni Sherozda vafot etdi u yerdagi Atik Masjididagi Vaqf qabrstoniga dafin etildilar. Mir Sayyid Sharif Jurjoniyl hazratlari vafot etguniga qadar o‘z ilmiyl faoliyatini davom ettirdi. Alloma o‘zidan keyin diniyl va dunyoviyl ilmlarga bag‘ishlangan 50 dan ortiq asar meros qilib qoldirdi. Asarlarining aksar qismini sharh va hoshiyalarni tashkil etadi, ulardan eng mashhur ilmiyl merosi kalom ilmiga oid “Sharh ul-Mavoqif”dir. Shu vaqtga qadar Mavoqifga u kishidek xech kim sharh yoza olmadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Sharh Aqoid AT- Taxoviyl. Shayx Muhammad Sodiql Muhammad Yusuf. Toshkent: Hilol-nashr;
2. Aqoid va unga bog‘liql masalalar. Shayx Muhammad Sodiql Muhammad Yusuf. Toshkent: Hilol-nashr;
3. Sharh al-Mavoqif fi ilmul kalom Sayyid Sharif Jurjoniyl. tahqiq va ta’liql Dr. Ahmad Al Mahdiy.
4. Mabahisul mavjud val mahiya min kitab al-Mavaqif. Dr.Ahmad at-Toyyib
5. Sharh al-Mavoqif Sayyid Sharif Jurjoniyl ma’a hashiyati as-Sayalakutiyl va Chalabiyl. Darul Kutubil I’lmiya -Bayrut.



6. Matali'ul anzor a'la matni tovoli'il anvor ma'a hoshiyati Sayyid Sharif Jurjoniy" nashr:
"Dorul Kutub" Bayrut
7. Al-Mabahus al-Mashriqiya fi ilmi ilahiyat vattobi'yat. Fahriddin ar-Razziy
8. Muhassal afkarul Mutaqaddimin val Mutaahhirin minal ulamai' val hukamai val mutakalimin. Faxriddin ar-Razziy nashr: Maktabatul kuliyaatil azhariyya.
9. O'rta asr Sharq allomalari ensiklopediyasi. 2016
10. Tabaqotu Hanafiyya. Alouddin Ali al-Hinnaiy. Sulaymoniya kutubxonasi, Husni Posho bo'limi, r. 844, s. 22